



Oybek Klichev

Oriental universiteti

Tarixi kafedrasи dotsenti, t.f.d. (DSc)

E-mail: klichev_oybek@mail.ru

**XIX ASRNING OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA
TURKISTONDAGI IJTIMOIY –SIYOSIY FAOL HARAKAT
XUSUSIDA AYRIM QARASHLAR TAHLILI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15729755>

Annotatsiya. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston mintaqasida hukmron bo‘lgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar o‘lkada ijtimoiy-siyosiy faol harakatni shakllanishiga xizmat qildi. Maqolada “ma’rifatparvarlar”, “jadidlar”, “taraqqiyparvarlar”, “islohotchilar”, “istiqlolchilar”, “millat oydinlari” kabi atamalarga ta’rif bergan holda ularning nima sababdan qo‘llanilganligi tahlil etildi. Qolaversa, ijtimoiy-siyosiy faol harakat sifatida baholangan jadidchilik harakatining davriylanishi masalalari xususida ma’lumotlar ham o‘zaro taqqoslandi. Tadqiqotda Turkiston bo‘ylab keng tarqalgan jadidchilik harakatining hududiy bo‘linishlari xususiyatlarining ham zarurati ta’kidlandi.

Kalit so‘zlar: davrlashtirish, taraqqiyparvarlik, Xiva jadidlari, millat oydinlari, Buxoro jadidlari, Turkiston, ma’rifatparvar, jadidchilik, Farg‘ona jadidlari, fenomen.

Kirish. O‘zbek davlatchiligi tarixida deyarli har bir davrda yangilanish, o‘zgarish va o‘zgartirish bilan bog‘liq tadbirlar amalga oshirilgan. Ular asosan, davlat boshqaruв tizimida, siyosiy jarayonlar, iqtisodiy hamda madaniy-ma’rifiy jabhalarda

namoyon bo‘lgan. O‘zlikni saqlash, yoki unga intilish kabi ko‘rinishlar ham shular jumlasidandir. Bu kabi ishlar asosan, mavjud sulola namoyondalari hamda mamlakatdagi hukmron tabaqa vakillari, shuningdek, jamiyatning eng ilg‘or qatlami sifatida qaraladigan ziyolilar tomonidan amalga oshirilgan. Hamma vaqt ham islohot va o‘zgarishlar jamiyat tomonidan bir me’yor va maromda qabul qilinmagan. Chunki, yangilanishni anglash, uni qabul qilish uchun vaqt va xalqning yakdilligi zarurdir.

Asosiy qism. Jamiyatda sodir bo‘lishi kerak bo‘lgan o‘zgarish, yangilanish, islohot, taraqqiyotni ma’rifatga erishish orqaligina amalga oshirish mumkin. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida O‘rta Osiyoda shakllana boshlangan ijtimoiy faol harakat vakillari xususida ilmiy hamda o‘quv adabiyotlarda “ma’rifatparvarlar”, “jadidlar”, “taraqqiyparvarlar”, “islohotchilar”, “istiqlolchilar”, “millat oydinlari” kabi atamalar qo‘llanilmoqda.

Ma’rifatparvarlar – mazkur tushuncha zamirida bilim ko‘nikmasi va hayot yo‘lini ilmga baxshida etgan shaxslar faoliyati nazarda tutiladi. Ma’rifat tarqatish bilan bo‘g‘liq faoliyat tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida amal qilingan.

Zero, XIX asrda yashab ijod qilgan Ahmad Donish, Sharifjon Sadri Ziyo, Munis, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Muqimiyy, Zavqiy, Furqat kabilarni ma’rifatparvarlar sifatida atash mumkin. Ma’rifatparvarlarning xonlik/amirlik jamiyatidagi o‘rni, mamlakat rivoji uchun qo‘llagan va taklif qilgan tadbirlari xususida ularning ilmiy merosini tadqiq etish orqaligina bilib olish mumkin. Ma’rifatparvarlik g‘oyasi va faoliyati avlod kelajagi uchun g‘amxo‘rlikning bir ko‘rinishidir.

“*Jadidlar*” yoki “*jadic namoyondalari*” tushunchalarini tahlil qilishdan oldin bu atamaning genezisiga e’tibor qaratish lozim. Professor Begali Qosimov ilmiy merosining tahlili “*jadic*” tushunchasining ilk iste’moli Turkiyada Sulton Salim III (1789-1802-yillar) davriga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda[1, 9]. Turkiya sultonini o‘z vakili Abubakr Rotibni Avstriyaga yuboradi. Abubakr Rotib o‘zi tashrif buyurgan davlatlarda sodir bo‘lgan o‘zgarish va yangilanish xususida Turkiya sultoniga “*nizomi jadic*” shaklida tushuntirishga intilgan. Ya’ni sulton vakili Yevropa

mintaqasida sodir bo‘lgan jarayonlarni, davlat boshqaruv, harbiy tizim, xalq xo‘jaligidagi yangilanish, o‘zgarishlarning ahamiyati xususida ma’lumot jamlagan va ulardan ijobiy natijalarni joriy etish ehtimoli xususida fikr bildirgan. Bu, albatta, bevosita Yevropa mintaqasi bilan doimiy muloqotda bo‘lgan Turkiya uchun muhim bo‘lgan. Yangilik, o‘zgarishlardan xabardorlik hamda uning o‘ziga xos va mos jihatlarini o‘z hududiga joriy etish orqaligina zamon bilan hamnafas bo‘lish mumkin. Mazkur tamoyil tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida rioya etilishi zarur omillardan biri hisoblanadi.

O‘z-o‘zidan yuqorida ta’riflashga harakat qilingan tushunchalar nafaqat bir davrda qo‘llanilganini, balki har bir tushuncha zamirida faoliyat va davr mujassam etilganini tushunish darkor. Ya’ni, “*marifatparvarlik*” va uning ko‘لامи har bir tarixiy davrda turli daraja va shaklda namoyon bo‘lgan bo‘lsa, aynan “*jadid*” yoki shu tushuncha bilan bog‘liq harakatlar XIX asrning 80-90-yillari – XX asr boshlari bilan bog‘liq.

“*Taraqqiyatparvarlik*” esa XX asr boshlarida mintaqamiz ijtimoiy hayotida sodir bo‘lgan va uning o‘zgarishiga sabab bo‘lgan muhim siyosiy voqealar zamirida qo‘llanilgan, deb ta’kidlash mumkin. Harakatning “*islohotchilik*” yoki “*istiqlolchilik*” deb atalishida jamiyatning eng faol qatlaming davlat va jamiyatda hukm surgan tuzum va tizimni isloh etish, takomillashtirish ehtiyojini tushunish hamda unga mos ravishda o‘z qarashini ifoda etish, mahalliy shart-sharoitlarga mos keladigan, o‘z xalqi kelajagi uchun zarur islohotlarni ishlab chiqish ko‘nikmasining shakllanishi kabi jihatlar inobatga olingan, deb ta’kilash o‘rinli. Qolaversa, islohot qilishni anglash va islohot dasturlarini ishlab chiqish tafakkurining shakllanishini mazkur harakatning yana bir pog‘onaga ko‘tarilganligi bilan baholash mumkin.

Tarixiy shart-sharoit o‘z hududini mustaqil idora etish yoki bu imkoniyatdan mahrum bo‘lishga sabab bo‘ladi. Shu o‘rinda XX asrning ikkinchi o‘n yilligida jahoniy ahamiyat kasb etgan birinchi jahon urushi va uning oqibatlari, yohud Romanovlar sulolasining uch yuz yillik hukmronligiga barham berilishi kabi muhim tarixiy voqeyleklar o‘lkada bosqichma-bosqich takomillashib borgan ijtimoiy

faollikning “*istiqlolchilik*” harakati shakliga o‘tishini tezlashtirdi. O‘zlik, istiqlol g‘oyasi xalq ong-u shuurida azaldan mavjud edi. Biroq, mavjud vaziyat hamma vaqt ham unga erishish imkonini bermas edi.

O‘lkada shakllangan hamda turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lgan harakat “*jадidchilik*”, ularning vakillari esa “*jадidlar*” deb atalgan va shunday yuritilmoqda. Bu atama so‘nggi bir asr mobaynida keng iste’molda bo‘lishiga qaramay, mazkur harakat vakillariga nisbatan bugungi kunda “*millat oydinlari*” iborasi ham qo‘llanilmoqda. Bizning nazdimizda “*millat oydinlari*” o‘z xalqi va uning taqdiri uchun kurashgan va bu uchun o‘zining iqtisodiy, ijtimoiy, intellektual imkoniyatlarini sarf etishdan to‘xtamagan jamiyatning *ijtimoiy faol* qatlami vakillaridir.

Bu tushuncha xalq, millat dardi va muammolarni ko‘ra olgan, ularni hal etishga uringan va xalq orasida “xodimi millat/ millat xodimi(vakili) kabi atama bilan ham o‘zaro ma’nodoshligini ta’kidlash joiz. Zотан, ular o‘z oldilariga qo‘ygan vazifalarning ijrosiga alohida e’tibor berib, barcha harakatlar xalq nomidan va millat kelajagiga yo‘naltirilishidan kelib chiqib o‘zlarini millat vakillari deb hisoblaganlar”. Barcha sa’y-harakatlar istibdod iskanjalaridan qutilish, buning uchun dastavval xalqqa ziyo tarqatish, ijtimoiy faol, o‘z haq-huquqini talab qilish, zamon talablariga mos ko‘nikmaga ega avlodni shakllantirish qolaversa, o‘z harakatlarini yurt kelajagini yoritishga yo‘naltirish va shu maqsad sari birlashgan faollar jamoasini anglatadi. Ular o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlari vositasida millat kelajagini yoritish mumkin, deb hisoblaganlar. Zero, uyg‘oq millatgina yuksalish sari qadam qo‘ya oladi.

XX asr boshlarida keng yoyilgan mazkur harakatning faoliyatini, maqsad va ularning ijrosi jihatidan bilvosita, bir necha davriy bo‘linishlarga ajratish mumkin. Biroq, davrlashtirishda mazkur hodisaning umumiy harakat xarakteri nuqtayi nazaridan hamda hududiy jihatdan o‘ziga xos tomonlari mavjudligini qayd etish lozim. Bunday davrlashtirishda umumiy hamda xususiy jihatlar bilan bevosita chambarchas bog‘liqligini unutmaslik darkor.

Akademik N.Karimov o‘z maqolalarining birida bevosita “jadidchilik” harakatining xronologik boshlanish davri xususida o‘z qarashlarini ilgari surgan [2, 24-25]. Olim harakatni XX asr boshlarida o‘lkaga mavjud shart-sharoit hamda yangi g‘oyalar bayon etilgan matbuot nashrlarining kirib kelishi bilan izohlaydi. O‘lkada matbuotning shakllanishi ham buning mantiqiy davomidir.

Tarixchi olim S.Agzamxodjayev o‘lkada jadidchilik tarixi ikki bosqichda namoyon bo‘lgan deb ta’kidlaydi[3,6]. Olim ilgari surgan fikrlarga e’tibor qaratilsa, harakatning birinchi bosqichi – ma’rifatparvarlik bosqichi hisoblanadi. Ikkinci bosqichi esa siyosiy bosqichdir.

Shu o‘rinda *jadicchilik* harakatining rivojlanish jarayonlarining xronologik bo‘linishi bilan bog‘liq ayrim ma’lumotlarni ham ta’kidlash joiz. Birinchidan, O‘rta Osiyo mintaqasida XIX asrning so‘nggi choragi – XX asr boshlarida keng yoyilgan ijtimoiy faol aholi vakillarining faoliyati bir necha bosqichlarga ajratilgan holda o‘rganilgan. Ammo, mintaqada keng tarqalgan yangilanish bilan bog‘liq harakatni uch asosiy qismga ajratgan holda davrlashtirishda ham makon, ham zamon omillariga tayanish muhimdir.

Shu o‘rinda, Turkiston mintaqasida yoyilgan jadidchilik harakatini davriy bo‘linishini ham bir necha guruhga ajratish mumkin. Guruhlashni territorial – hududiy jihatlar bilan asoslash o‘rinli. *Toshkent jadidlari, Samarqand jadidlari, Farg‘ona jadidlari* kabi guruhash yaxlit Turkiston jadidlariga nisbatan olingan. Har bir hududga harakatning shakllanishi uchun kerakli shart-sharoit muhim rol o‘ynagan.

Tarixchi olim T.Qozoqov o‘z izlanishlarida mazkur davrda Farg‘ona vodiysida kengaygan jadidchilik harakatini uch bosqichga bo‘lib o‘rganishni taklif qilgan[4, 52-53]. Olim o‘z qarashlarini quyidagicha bayon etadi.

Harakatning *birinchi bosqichi* XIX asr oxiridan 1908-yilgacha bo‘lgan davr hisoblanadi. Is’hoqxon Ibrat, Mullo Shoazim domla, Salohiddin domla, Abduvahob Ibodiylar faoliyati bu davrga to‘g‘ri keladi. Harakatning *ikkinci bosqichi* 1908 – 1917-yillar oralig‘ini o‘z ichiga oladi. 1917-yil fevraldan – 1918-yil martiga qadar

sodir bo‘lgan voqealar uchinchi davrning shakllanishiga xizmat qilgan. Farg‘ona vodiysida jadidchilik harakatining mazkur uch bosqichga bo‘linishida o‘ziga xos yondashuv mavjud. Ya’ni birinchi bosqichda harakat ma’rifat ulashish bilan xarakterlanadi. Ikkinci davrda esa harakat ilg‘orlarining jamiyatda siyosiy jihatdan faollashuvi kuzatiladi. Ikkinci bosqichning bevosita mantiqiy davomi sifatida Turkiston muxtoriyati uchun kurash davri esa harakatning uchinchi davri mazmunida talqin etiladi.

G.Ashurov jadidchilik harakati uch davrni o‘z ichiga olishini ta’kidlaydi. O‘z-o‘zidan bu ham xronologik bosqichlardan tarkib topadi. Olimning xronologik bo‘linish bilan bog‘liq ma’lumotlarida harakatning birinchi davri *1905-yilga* qadar davom etganligi ta’kidlanadi. Bu davrni “*shakllanish davri*” sifatida qabul qilish tavsiya etiladi. *1905-1917-yillar* oralig‘idagi voqealar mazkur voqeylikning “*taraqqiyot*” davriga to‘g‘ri keladi. So‘nggi uchinchi davr *1917-1920-yillar* chegarasini o‘z ichiga oladi[5,13]. Mazkur davrda o‘lka siyosiy hayotida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar bevosita harakatning faollashuviga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan uning ta’qib etilishi, bo‘linishiga olib kelgan. Shu uchun ham bo‘lsa kerak, olim bu davrga nisbatan “*bo‘linish*” atamasini qo‘llashni taklif etgan.

Jadidchilik harakatini o‘lkada so‘nggi uch asr davomida kuzatilmagan holat/favqulodda hodisa sifatida ya’ni “*jadid fenomeni*” deb ta’riflashni taklif etgan hamda bu mazkur qarashni har tomonlama ilmiy jihatdan isbotlagan olma D.A.Alimova hisoblanadi[6, 23].

Tarixchi olim Q.Rajabov jadidchilik harakatining paydo bo‘lishi, tarqalishi va tarqatilishi bilan bog‘liq tarixiy jarayonlarni o‘rgangan holda bu harakatni *to‘rt davrga ajratgan*[7, 118]. Olimning fikricha, *1895-1905-yillarni* jamiyatni o‘zgartirishga intilish, bu yo‘nalishda dastlabki qadamlar qo‘yilgan *birinchi davr* hisoblanadi. XX asr boshlarida Rossiya imperiyasida va dunyoda sodir bo‘lgan o‘zgarishlar o‘lkada ham o‘z aks-sadosini berdi. Turli tashkilot, muassasa, jamiyatlarning tuzilishi uning amaliy jihatlaridan biri edi. Demak, *1906-1916-yillar* oralig‘ida o‘tgan voqeа-hodisalar harakatning tashkiliy tuzilmalarini yaratishda

namoyon bo‘lgan edi. Bu jihat *ikkinchi davr* hisoblanadi. 1917-1920-yillarni o‘z ichiga olgan davrda o‘lka siyosiy taqdiri hamda bu davrda sodir bo‘lgan o‘zgarishlar harakatning siyosiy faol bosqichga ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. 1917-yilda O‘lka musulmonlarining o‘z taqdirini belgilash maqsadida o‘tkazgan syezdlari, Turkiston Muxtoriyati, uning bostirilishini *uchinchi davrda* sodir bo‘lgan asosiy voqeyleklar sifatida baholash mumkin. Turkistondagi jadidchilik harakatini tarixchi olim Q.Rajabov tomonidan ilgari surilgan davrlashtirishning so‘nggi *to‘rtinchi bosqichi* 1921-1929-yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davr shaklan milliy, mazmunan sotsialistik davlat qurilishi, mustabid sovet hukumatining milliy kadrlarga bo‘lgan munosabati, millat ziylarining dastlabki qatag‘on qilinishi bilan xarakterlidir.

Tahlillar R.Sharipov tadqiqotlarida harakatning shakllanishi va taraqqiy topishini uch davrga bo‘lish taklif qilinganini ko‘rsatmoqda[8, 82]. Uning birinchi davri XIX asrning 90-yillaridan – 1905-yilgacha, ikkinchi davri 1905-1917-yillarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa, so‘nggi uchinchi davr sifatida 1918-1930 yilgacha bo‘lgan voqeyleklardan iborat edi. Mazkur davriy bo‘linish ayrim jihatlarni hisobga olmaganda Q.Rajabovning davriy bo‘linishiga asos bo‘lgan, deyish mumkin.

Shu o‘rinda ayrim adabiyotlarda jadidchilikning Turkistondagi taraqqiyotini quyidagi bosqich/xronologik chegaralar bilan belgilanganligini ham ta’kidlash joiz. *Birinchi davr* 1885-1895-yillar, *Ikkinchi davr* 1895-1905-yillar, *Uchinchi davr* 1905-1914-yillar, *To‘rtinchi davr* 1914-1917-yillar, *Beshinchi va oltinchi davr* 1918-1924-yillar, *Yettinchi davr* 1925-1930-yillar hamda 1931-1938-yillarda sodir bo‘lgan voqealar *Sakkizinchi davr* sifatida baholangan[9, 194-195].

Biroq mazkur davriy bo‘linish tarafдорлари o‘z qarashlarini umumlashgan holda uch bosqichni ilgari surganlar. Unga ko‘ra, XIX asrning oxiri -1915-yilgacha bo‘lgan birinchi – “*ma’rifatchilik*” davri, 1915-yildan 1918-yil fevralgacha bo‘lgan “*muxtoriyatchilikka erishish*” davri hamda uchinchi davri sifatida, ya’ni harakatning “*yakunlovchi bosqichi*” 1918-yildan XX asrning 30-yillari oralig‘ida sodir bo‘lgan voqealardan tarkib topgan.

Jadidchilik harakatida davrlashtirish muammosi va uning o‘ziga xos yechimi sifatida taklif etilgan davriy bo‘linishlar Turkiston mintaqasi, ya’ni general-gubernatorlik tarkibiga kirgan hududlarga xosligi bilan farqlidir. Ya’nikim, O‘rta Osiyo mintaqasi ijtimoiy hayotiga kirib kelgan yangilanish, taraqqiyotga intilish, islohotlarni amalga oshirish bir oqimda shakllangan bo‘lsa-da, ammo uch yo‘nalishda, turli davriy chegaralar zamirida olib borilganligiga alohida e’tibor bilan yondashish darkor.

Xulosa va takliflar. Turkiston, Buxoro va Xiva jadidchilik harakati shu tartibda vujudga kelgan, shakllangan, taraqqiy topgan, tarqalgan hamda tugatilganligi buning yorqin misolidir. Harakatning faoliyat ko‘lamini hisobga oladigan bo‘lsak, jamiyatni uyg‘otish, o‘zgartirish, yangilash ishlariga rahbarlik qilgan shaxslarning siyosiy ijtimoiy va madaniy hayotdagi faoliyatiga sovet hukumati tomonidan chek qo‘yilganligiga qaramay, ular boshlagan ishlar, yozgan asarlar, darsliklari orqali tarbiyalangan avlod XX asr 50-60-yillarida yashadi va o‘z-o‘zidan ularning merosi xalqimiz ong-u shuurida o‘rin egallagan edi. Zero, jadid maktablarida tahsil olgan avlod va ular tomonidan amalga oshirilgan ishlar, yozilgan nazmiy va nasriy asarlar XX asr ikkinchi yarmiga qadar siyosiy ta’qibga duchor bo‘lgan. Bu hol, harakat ham bevosita shu davrga qadar o‘z shaklini o‘zgartirgan holda passiv holatda bo‘lsa-da mavjudligini ko‘rsatadi, deb o‘ylaymiz. Bu davrni ham XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan ijtimoiy-siyosiy faol harakatning madaniy-ma’rifiy shaklda xalq tafakkurida mavjud bo‘lganligi bilan xarakterli ekanligini inobatga olib, o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘lgan navbatdagi bosqich sifatida qabul qilish o‘rinlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent.: “Ma’naviyat”, 2002. – 400 b.

2. Karimov N. XX asr boshlaridagi tarixiy vaziyat va jadidchilik harakatining vujudga kelishi. / Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Davriy to‘plam. – №1 – Toshkent.: “Universitet”, 1999. – 228 b.
3. Agzamxodjayev S. Jadidchilik va milliy g‘oya masalalari / Jadid ma’rifatparvarlik harakatining g‘oyaviy asoslari. Respublika ilmiy amaliy anjuman materiallari. – Toshkent.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2016. – B. 6-10.
4. Qozoqov T. Farg‘ona vodiysida jadidchilik harakatining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari / Jadid ma’rifatparvarlik harakatining g‘oyaviy asoslari. Respublika ilmiy amaliy anjuman materiallari. – Toshkent.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2016. – B. 48-53.
5. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent.: “Ma’naviyat”, 2002. – 400 b.
6. Alimova D.A. Jadidchilik fenomeni. – Toshkent.: “Akademnashr”, 2022. – 272b.
7. Rajabov Q.K. O‘zbekiston XX asrda. Birinchi jild.(1900-1939). – Toshkent.: “Fan”, 2014. – 751 b.
8. Sharipov R.H., Muhiddinova F. O‘zbekiston xalqlari siyosiy-huquqiy ta’limotlari tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari) – Toshkent.: “Toshkent davlat yuridik instituti”, 2004. – 298 b. Qarang: Sharipov R.H. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2002. –176 b
9. Oblomurodov N., Hazratqulov A., Tolipov F., Tursunov N. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent.: “Fan va texnologiyalar”, 2011. – 348 b.

О СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОМ ДВИЖЕНИИ В ТУРКЕСТАНЕ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА АНАЛИЗ ОТДЕЛЬНЫХ ТОЧЕК ЗРЕНИЯ

Аннотация. Социальные, политические, экономические и культурные процессы, господствовавшие в Туркестанском крае в конце XIX – начале XX

веков, послужили формированию общественно-политического активного движения в регионе. В статье даются определения таким терминам, как «просветители», «джадиды», «прогрессисты», «реформаторы», и анализируются причины их употребления. Кроме того, были сопоставлены данные по вопросам периодизации джадидистского движения, которое оценивалось как социально-политически активное движение. В исследовании также подчеркивалась необходимость удаления внимания особенностям территориального деления движения джадидизма, которое широко распространено по всему Туркестану.

Ключевые слова: периодизация, прогресс, хивинские джадиды, нация, бухарские джадиды, Туркестан, джадидизм, просвещение, ферганские джадиды, феномен.

ON THE SOCIO-POLITICAL MOVEMENT IN TURKESTAN AT THE END OF THE 19TH-BEGINNING OF THE 20TH CENTURY, AN ANALYSIS OF INDIVIDUAL POINTS OF VIEW

Annotation. The social, political, economic and cultural processes that prevailed in the Turkestan region in the late 19th and early 20th centuries led to the formation of a socio-political active movement in the region. The article defines terms such as "enlighteners", "Jadids", "progressives", "reformers", and analyzes the reasons for their use. In addition, data on the periodization of the Jadidist movement, which was assessed as a socially and politically active movement, were compared. The study also emphasized the need to pay more attention to the peculiarities of the territorial division of the Jadid movement, which is widespread throughout Turkestan.

Keywords: periodization, progress, Khiva Jadids, nation, Bukhara Jadids, Turkestan, Jadidism, enlightenment, Ferghana Jadids, phenomenon.